

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda
ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar to’g’risida
H I S O B O T**

2026-yil 30-iyun

“NKMK” AJda (*keyingi o‘rinlarda - Jamiyat*) korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash yo‘nalishida 2026-yil yanvar-iyun oylari davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan,

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida.

Jamiyatning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga (*keyingi o‘rinlarda - Xizmat*) **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 12 nafari xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda 3 ta vakant lavozimlarga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

2026-yil 20-yanvarda **24 banddan** iborat “NKMK” AJda 2026-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash yo‘nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va dasturning **9 ta** bandi ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Shu bilan birga, 2025-yil 24-dekabrda Jamiyat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha **9 ta banddan** iborat yo‘l xaritasi tasdiqlandi va uning ijrosi ta’minlanmoqda.

Jamiyat boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan **47 ta** hujjatlar loyihalari va **20 ta** fuqaro qabuli bo‘yicha rasmiylashtirilgan bayonnomalar loyihalari Bosh yuriskonsult bilan birgalikda **huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizadan** o‘tkazildi va qonuniyligi ta’minlandi.

Xizmat tomonidan Jamiyat Markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalarining jami **3 629 ta** (*3123 ta buyruq va 506 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **134 ta** ichki idoraviy hujjatlar loyihalari normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo‘linmalarida 2025-yil noyabr-dekabr oylarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **1 400 ta** funksiyalar baholanib, shundan **2 ta** “yuqori”, **34 ta** “o‘rta” va **1 364 ta** “past” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2026 yil 4 martda **29 ta** banddan iborat Dastur tasdiqlandi va uning **10 ta** bandi ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Bundan tashqari, 2023-yilda o‘tkazilgan baholashda **19 ta** “yuqori”, **57 ta** “o‘rta”, 2024-yilda **3 ta** “yuqori”, **45 ta** “o‘rta” hamda 2025-yilda **1 ta** “yuqori”, **19 ta** “o‘rta” xavf-xatari mavjud bo‘lgan funksiyalar aniqlanib, ushbu xavf-

xatarlarni minimallashtirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Jamiyat ishchi-xodimlari bilan **82 marotaba** (*jumladan, 65 ta seminar, 3 marotaba radioda, 3 marotaba gazetada, 2 marotaba televideniya va 9 marotaba ijtimoiy tarmoqlar orqali*) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida **6 748 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Xizmat xodimlari tomonidan jami **2 marotaba** malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi. Jumladan, Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari hamda Korporativ boshqaruvning malakaviy attestati bo'yicha sertifikatlar qo'lga kiritildi.

Komplayens xizmatiga jami **516 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo'lib, ijro muddati kelgan **281 tasining** ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi. Shu bilan birga, **9 ta** yuridik va jismoniy shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 7 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan, 1 tasi qisman qanoatlantirilgan va qolgan 1 ta murojaat o'rganish jarayonida.

Shu bilan birga, Jamiyatning markaziy apparat va tarkibiy bo'linmalariga xodimlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga o'tkazish bo'yicha komissiyaning **260 ta** yig'ilishlarida komissiya a'zosi sifatida ishtirok etildi.

"NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma talablari asosida tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **1 344 nafar** nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi. Shundan **1331 ta** ijobiy va **13 ta** xulosa berildi.

Tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida ishga qabul qilingan **1 331 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda "NKMK" AJ tomonidan tuzilgan **6 332 ta** xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta'minlandi.

32 marotaba o'rganish va xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan **37 nafar** ishchi-xodimlar intizomiy javobgarlikka tortildi. Shu bilan birga, o'rganishlar natijasida **41 ta** buyruqlar amaldagi normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatda faoliyat yuritayotgan **5 787 nafar** boshqaruv xodimlaridan yillik ehtimoliy **manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya** to'ldirtirildi. Dastlabki tahlillar natijasida **13 ta** mavjud va **54 ta** ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha Odob-axloq komissiyalari tomonidan tegishli tartibda qarorlar qabul qilindi.

Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan **742 ta** kontragentlar tekshirildi. "NKMK" AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo'yicha nazorat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **4 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o'tkazildi. Hisobot

davrida **5 ta** xalqaro bank (*Citibank, Deutsche Bank, J.P.Morgan, Raiffeisen Bank, Societe Generale*) tomonidan Jamiyatning xalqaro sanksiyaga qarshi nazoratdan o'tkazilishida ishtirok etildi.

Bundan tashqari, "NKMK" AJda xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan **5 marotaba** monitoring o'tkazilgan. Monitoringda **124 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Shuningdek, Jamiyatning **5820 nafar** xodimlaridan anonim so'rovlar o'tkazildi. So'rov natijasida xodimlarning bilimi hamda jamiyatdagi korrupsiyaviy holatlar tahlil qilindi. Ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2025-yil yakuni bo'yicha **29 turdagi** ma'lumot va hisobotlar "**E-Anticor.uz**" elektron platformasiga kiritildi.

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash sohasida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Farmoni ijrosi yuzasidan tegishli ma'lumotlarning belgilangan muddatlarda Jamiyatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

Jamiyatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda (*jamiyat xodimlari uchun joriy etilgan*) joriy etilgan "**Korrupsiyaga qarshi kurashish**" va "**Ochiq ma'lumotlar**" bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, ochiq e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Xizmatning mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, Jamiyatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan "NKMK" AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar rasmiy veb-saytga e'lon qilinishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida **2026-yil 17-fevral va 22-aprelda** "NKMK" AJ Markaziy apparati binosida **brifing** hamda **12-mart kuni** "Farhod" madaniyat saroyining kichik majlislar zalida **matbuot anjumani** o'tkazildi.

Komplayens xizmati boshlig'i

R.F. Avezov